

## SKANDINAVIYA MAMLAKATLARI TAJRIBASIDA IJTIMOYIY DAVLAT MODELI VA MUVAFFAQIYAT SABABLARI

**Ochilov Suxrob Ikromjonovich**

*Toshkent davlat yuridik universiteti  
Magistratura va sirtqi ta'lim fakulteti Davlat  
boshqaruvi huquqi mutaxassisligi magistranti*

***Annotatsiya.** Maqolada Skandinaviya mamlakatlarida shakllangan ijtimoiy davlat modeli nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Ushbu modelning muvaffaqiyat omillari – soliq siyosati, ijtimoiy tenglik, fuqarolik jamiyatining faolligi kabi omillar asosida ochib berilgan. O'zbekiston sharoitida ushbu tajribaning qanday jihatlari mos tushishi mumkinligi ham baholangan.*

***Kalit so'zlar:** ijtimoiy davlat, Skandinaviya modeli, soliq siyosati, ijtimoiy tenglik, ijtimoiy investitsiya, fuqarolik jamiyati, O'zbekiston tajribasi.*

***Аннотация.** В статье рассматривается скандинавская модель социального государства с теоретической и практической точек зрения. Основное внимание уделено таким факторам успеха, как налоговая политика, социальное равенство и активность гражданского общества. Также проанализирована применимость данных элементов в условиях Узбекистана.*

***Ключевые слова:** социальное государство, Скандинавская модель, налоговая политика, социальное равенство, социальные инвестиции, гражданское общество, опыт Узбекистана.*

***Annotation.** The article explores the Scandinavian model of the welfare state from both theoretical and practical perspectives. It emphasizes key success factors such as tax policy, social equality, and civic engagement. The applicability of certain elements of this model in the context of Uzbekistan is also examined.*

***Key words:** welfare state, Scandinavian model, tax policy, social equality, social investment, civil society, Uzbekistan's experience.*

### KIRISH

Ijtimoiy davlat – bu fuqarolarning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy farovonligini ta'minlashni o'z zimmasiga olgan, inson sha'ni va huquqlarini ustuvor qadriyat sifatida e'tirof etuvchi davlat modelidir. Ushbu yondashuvda davlat nafaqat iqtisodiy faoliyat uchun huquqiy maydon yaratadi, balki ijtimoiy tenglik, adolat va barqarorlikni ta'minlashda faol ishtirok etadi. Ijtimoiy davlat konsepsiyasi konstitutsiyaviy-huquqiy tamoyil sifatida ko'plab mamlakatlar konstitutsiyalarida o'z aksini topgan bo'lsa-da, Skandinaviya mamlakatlari – Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlandiya – bu modelning eng mukammal va barqaror shaklini namoyon qilgan. Ular yillar davomida soliqqa asoslangan qayta taqsimlash siyosatini, bepul ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini, hamda kuchli fuqarolik jamiyatini muvaffaqiyatli uyg'unlashtirishga erishgan. Ushbu maqolada Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy davlat tamoyillarining qanday joriy

etilgani, ularning muvaffaqiyat omillari va ushbu tizimning huquqiy asoslari chuqur tahlil qilinadi. Shuningdek, ushbu modelning O‘zbekiston sharoitida tatbiq etilishi mumkin bo‘lgan jihatlari ham muhokama qilinadi.

## USLUBLAR (METHODS)

Mazkur tadqiqotda taqqoslash, huquqiy tahlil, tarixiy-huquqiy yondashuv va tizimli tahlil metodlari qo‘llanildi. Avvalo, Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy davlat modelining shakllanishi, uning normativ-huquqiy asoslari hamda amaliy mexanizmlari o‘rganildi. Shu maqsadda Shvetsiya, Norvegiya, Daniya va Finlandiya davlatlarining konstitutsiyalari, ijtimoiy siyosatga oid qonun hujjatlari, parlament qarorlari va hukumat dasturlari tahlil qilindi.

Bundan tashqari, xalqaro tashkilotlar (BMT, OECD, UNDP, Jahon banki) tomonidan taqdim etilgan statistik ma’lumotlar va yillik hisobotlar asosida ijtimoiy tenglik, farovonlik, sog‘liqni saqlash, ta’lim va mehnat bozoriga oid ko‘rsatkichlar solishtirildi. Tadqiqotda shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy siyosatga oid huquqiy bazasi ham o‘rganilib, Skandinaviya tajribasi bilan muvofiqlik darajasi baholandi.

Tahlil jarayonida empirik dalillar huquqiy nazariya bilan uyg‘unlashtirilib, nazariy xulosalarga amaliy asoslar berishga harakat qilindi. Bu yondashuv maqolada ilgari surilgan g‘oyalarni dalillar bilan mustahkamlashga xizmat qildi.

## NATIJALAR (RESULTS)

Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy davlat modeli barpo etilishi *uzoq muddatli* strategik siyosiy irodaga, kuchli *institutsional tuzilmalarga* va jamiyatdagi yuqori darajadagi *ijtimoiy birdamlikka* tayanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, ushbu mamlakatlar ijtimoiy siyosatni faqat yordam ko‘rsatish vositasi sifatida emas, balki jamiyatdagi barqarorlik, ishonch va teng imkoniyatlarni ta’minlashning markaziy tamoyili sifatida qaraydi. Ayniqsa, davlat tomonidan moliyalashtiriladigan bepul ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimi, fuqarolarning iqtisodiy faoliyatga keng jalb etilishi va soliq siyosatining adolatli bo‘lishi ijtimoiy davlatning muvaffaqiyat omillaridan biri sifatida e’tirof etiladi [2; 63-bet.].

Shuningdek, konstitutsiyaviy-huquqiy asoslar bu modelda muhim o‘rin egallaydi: ijtimoiy himoya, tenglik va inson qadr-qimmatini ustuvor prinsiplarga aylangan. Fuqarolik jamiyati institutlarining faolligi, erkin ommaviy axborot vositalari va siyosiy *ochiqlik darajasi yuqori bo‘lishi* ushbu tizimning barqarorligiga xizmat qilgan. Ma’lumotlarga ko‘ra, ushbu mamlakatlarda ijtimoiy islohotlar ko‘p hollarda jamiyat bilan muloqot asosida, bosqichma-bosqich amalga oshirilgan va bu esa ijtimoiy noroziliklarni kamaytirgan.

O‘zbekiston sharoitida esa ushbu modeldan to‘liq nusxa olish emas, balki mavjud huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy real holatni hisobga olib ayrim tamoyillarni *bosqichma-bosqich implementatsiya* qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Jumladan, ijtimoiy himoya tizimining institutsional mustahkamlanishi, soliq va taqsimot siyosatining ijtimoiy adolat tamoyiliga asoslanishi, hamda fuqarolarning ijtimoiy hayotdagi faolligini oshirish ijtimoiy davlat sari muhim qadamlar bo‘lishi mumkin. Fikrimiz dalili sifatida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek, soliq tizimi qisqa muddatli manfaatlarga emas, balki puxta o‘ylangan, tizimli va uzoq muddatga mo‘ljallangan strategik siyosat asosida boshqarilishi lozim. Soliq siyosatining asosiy maqsadi — iqtisodiyotni rivojlantirish, tadbirkorlik subyektlariga qulay sharoit yaratish, ijtimoiy adolatni ta’minlash va byudjet daromadlarining barqarorligini oshirishdan iboratdir. Shu munosabat bilan, soliq yuki oqilona taqsimlanishi, yig‘im jarayonlari ochiq va shaffof bo‘lishi, soliq siyosati esa aholining barcha qatlamlari va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning manfaatlarini inobatga olgan holda shakllantirilishi lozim [1].

Skandinaviya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ijtimoiy davlat faqat ijtimoiy yordam va subsidiyalar taqdim etuvchi mexanizm sifatida emas, balki jamiyatdagi uzoq muddatli barqarorlik, fuqarolar o‘rtasida ishonch va ijtimoiy birdamlikni mustahkamlovchi strategik tizim sifatida qaralishi lozim. Ushbu mamlakatlarda ijtimoiy davlat konsepsiyasi odamlarni faqat muhtojlik holatida qo‘llab-quvvatlash bilan cheklanmaydi; aksincha, u har bir fuqaroning insoniy salohiyatini ro‘yobga chiqarishiga, teng imkoniyatlar asosida taraqqiyotda ishtirok etishiga va ijtimoiy hayotda faol bo‘lishiga yo‘l ochadi. Shunday yondashuv tufayli, Skandinaviya jamiyatlarida nafaqat iqtisodiy farovonlik, balki yuqori ijtimoiy barqarorlik, past darajadagi ijtimoiy ziddiyatlar va kuchli fuqarolik hamjihatligi shakllangan.

## MUNOZARA (DISCUSSION)

Skandinaviya mamlakatlarida ijtimoiy davlat modelining muvaffaqiyatli amaliyoti ko‘plab tahlilchilarga ko‘ra ularning tarixiy, siyosiy va iqtisodiy evolyutsiyasi bilan chambarchas bog‘liq. Masalan, Shvetsiya va Norvegiya XX asr boshidan boshlab demokratik islohotlar orqali fuqarolik jamiyatini mustahkamlash, mehnat munosabatlarini institutsional asosda tartibga solish va keng ijtimoiy himoya tizimini shakllantirishga kirishgan. 2023-yilda BMT Taraqqiyot Dasturining *Inson taraqqiyoti hisobotida* Norvegiya eng yuqori inson taraqqiyoti indeksi (HDI – 0.961) ko‘rsatkichiga ega mamlakat sifatida e’tirof etildi (UNDP, 2024). Shuningdek, *World Happiness Report 2023* hisobotiga ko‘ra, Finlandiya ketma-ket oltinchi yil dunyoning eng baxtli davlati sifatida tan olingan (Helliwell va boshq., 2023). [3].

Ijtimoiy davlat modeli muvaffaqiyatining yana bir omili — **soliq siyosatining** adolatli va ijtimoiy tenglikka xizmat qiluvchi shaklda bo‘lishidir. Skandinaviya mamlakatlarida soliq siyosati ijtimoiy adolat va umumiy farovonlikni ta’minlashning muhim vositasi sifatida qaraladi. Bu mintaqada, xususan Shvetsiyada, soliq stavkalari nisbatan yuqori bo‘lib, umumiy soliq yuklamasi yalpi ichki mahsulotning 42 foizidan ortig‘ini tashkil etadi. Bunday soliq yukining mavjudligi davlatga sog‘liqni saqlash, ta’lim, pensiya va boshqa ijtimoiy xizmatlarni keng miqyosda, ko‘pchilik hollarda bepul taqdim etish imkonini beradi. Yuqori soliq stavkalari fuqarolar tomonidan nisbatan ijobiy qabul qilinadi, chunki ular ushbu tizimning ochiqligi, samaradorligi va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashdagi rolini anglab yetganlar. [4], biroq bu tushumlar yuqori sifatli sog‘liqni saqlash, bepul ta’lim, ijtimoiy yordam va pensiya tizimi orqali aholiga qaytadi. Ya’ni ularda shunaqa qarash borki, qancha soliq miqdori yuqori bo‘lsa, aholining xavfsizligi va farovonligi ham shunga monand bo‘ladi deb hisoblashadi. Lekin, bizda xalqimizning ijtimoiy ongida yuqori miqdorli soliqlarga nisbatan o‘ta tanqidiy munosabat bor. Aybni aholi to‘kab qo‘yish albatta noto‘g‘ri bo‘ladi. Mansabdorlarning o‘z mavqeilarini suiiste‘mol qilishlari, bu ishonchsizlikni keltirib chiqargan desak yanglishmagan bo‘lamiz.

Aksincha, Shimoliy Yevropa tizimida fuqarolarning davlatga bo‘lgan ishonchi yuqori va soliqlarga **ijtimoiy investitsiya** sifatida qarash madaniyati allaqachon shakllanib ulgurgan. Shu jihatdan, Skandinaviya tajribasi *ijtimoiy tenglik va iqtisodiy samaradorlikni* bir-biriga zid emas, balki o‘zaro uyg‘unlashtirilgan qadriyatlar deyishimiz mumkin.

Biroq ushbu modelni boshqa mamlakatlarga, xususan, O‘zbekiston kabi rivojlanayotgan davlatlarga to‘liq ko‘chirib o‘rnatish maqsadga muvofiq emas. Chunki iqtisodiy salohiyat, byudjet imkoniyatlari, demografik tarkib va mehnat bozori sharoitlari tubdan farq qiladi. Shu bois, Skandinaviya tajribasidan real foyda olish uchun ularning tizimlarini chuqur o‘rganish va mahalliy ehtiyojlar asosida moslashtirish muhimdir. Jumladan, O‘zbekistonda *ijtimoiy xizmatlar sifatini oshirish, ishsizlik darajasini kamaytirish va aholi orasida davlatga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash orqali ijtimoiy davlat tamoyillariga bosqichma-bosqich yaqinlashish mumkin*. Mavjud qonunchilikda belgilangan ijtimoiy kafolatlarning samarali bajarilishi va aholining huquqiy ongini oshirish ham bu yo‘ldagi muhim qadamlardandir.

## XULOSA

Skandinaviya mamlakatlari ijtimoiy davlat modelining muvaffaqiyati bir nechta huquqiy, iqtisodiy va madaniy omillarning uyg‘unlashganligida namoyon bo‘lmoqda. Ular adolatli va samarali qonunchilik tizimi, barqaror iqtisodiy rivojlanish, fuqarolarning

huquqiy madaniyati va ijtimoiy birdamlik tamoyillarini uyg'unlashtira olgani bilan ajralib turadi. Har bir fuqaroning ta'lim, tibbiyot, ijtimoiy xizmatlar kabi asosiy ehtiyojlarini davlat kafolati ostida qamrab olish tajribasi jamiyatda ijtimoiy barqarorlik va fuqarolik ishonchini mustahkamladi.

Bu tajriba O'zbekiston uchun qimmatli saboqlar manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin, ayniqsa ijtimoiy himoya tizimini chuqurlashtirish, aholining ehtiyojmand qatlamlarini yanada kengroq qamrab olish va ijtimoiy adolatni mustahkamlash borasida. O'zbekiston o'z sharoitiga mos holda, huquqiy institutlar mustahkamligini oshirish, iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish va fuqarolarning ijtimoiy ongini yuksaltirish orqali Skandinaviya tajribasidan samarali foydalanishi mumkin. Shu bilan birga, milliy qadriyatlar va tarixiy tajribani hisobga olgan holda, o'ziga xos ijtimoiy modelni shakllantirish orqali barqaror va farovon jamiyat sari dadil qadam tashlash imkoniyati mavjud.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. (20.12.2022). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasi.
2. Esping-Andersen — "The Three Worlds of Welfare Capitalism" (1990).
3. UNDP (United Nations Development Programme). 2024. Human Development Report 2023-24: Breaking the gridlock: Reimagining cooperation in a polarized world. New York: United Nations Development Programme.
4. OECD. (2023). Revenue Statistics 2023: Tax revenue trends in the OECD.
5. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). O'zbekistonda inson huquqlari va milliy qonunchilikni takomillashtirish. *Международный журнал теории новейших научных исследований*, 2(10), 173-176.
6. Makhmurovna, S. B., & Dahiya, R. Analysis of Italian and Russian Proverbs Reflecting the Concept of Time.
7. Nizomiddinova, S. N., & Makhmurovna, S. B. (2025). Lexical and semantic analysis of antonymic correlated Italian proverbs on friendship and love. *Web of Scientists and Scholars: Journal of Multidisciplinary Research*, 3(3), 21-25.
8. Bekzod o'g'li, J. F. (2024). Kriminalistik huquq va jinoyatlarning oldini olish. *International innovation and researches*, 1(3), 53-55.